

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MULK HUQUQINING
KONSTITUTSIYAVIY- HUQUQIY MEXANIZMLARINI YANGILASH**

Xudaibergenova Dilnoza Ulug‘bek qizi

Toshkent Davlat Yuridika universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi
talabasi

E-mail: dilush826@gmail.com

Annotatsiya: global raqamli transformatsiya sharoitida mulk huquqining mazmuni va uni himoya qilish shakllari tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu maqolada mulk huquqining raqamli iqtisodiyot ta’sirida qanday yangicha shakllar kasb etayotgani, xususan, raqamli aktivlar, NFT, blokcheyn asosidagi obyektlar, domen nomlari va sun’iy intellekt mahsulotlarining mulk sifatida huquqiy maqomi keng yoritilgan. Muallif O‘zbekiston Konstitutsiyasida mulk huquqining mavjud holatini tahlil qilgan holda, raqamli mulk tushunchasi va unga oid konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, AQSh, Estoniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlar tajribasi solishtirma tahlil asosida o‘rganilib, milliy qonunchilikka zamonaviy yondashuvlarni integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli mulk, konstitutsiyaviy huquq, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, NFT, domen nomi, blokcheyn, raqamli aktivlar, huquqiy maqom, mulk egaligi, shaxsiy ma’lumotlar, elektron reyestr, raqamli suverenitet, sud amaliyoti, huquqiy bo‘shliq.

**ОБНОВЛЕНИЕ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫХ
МЕХАНИЗМОВ ИМУЩЕСТВЕННЫХ ПРАВ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВИЗАЦИИ**

Худайбергенова Дилноза Улугбековна

Студент направления "Право средств массовой информации" Ташкентского
государственного юридического университета

dilush826@gmail.com

Аннотация: в условиях стремительного развития цифровых технологий понятие собственности претерпевает кардинальные изменения. В статье исследуется, как цифровые активы, NFT, доменные имена, продукты ИИ и иные нематериальные ресурсы становятся объектами имущественных прав. Автор проводит анализ действующей редакции Конституции Республики Узбекистан, выявляя пробелы в регулировании цифровой собственности, и обосновывает необходимость внедрения современных правовых механизмов защиты. В работе представлено сравнительное исследование законодательства США, Эстонии, Южной Кореи и Китая, и на этой основе сформулированы предложения по адаптации национальной правовой системы к вызовам цифровой эпохи.

Ключевые слова: цифровая собственность, конституционное право, цифровизация, искусственный интеллект, NFT, доменные имена, блокчейн, цифровые активы, правовой статус, персональные данные, электронный реестр, цифровой суверенитет, судебная практика, правовые пробелы, модернизация законодательства.

RENEWAL OF CONSTITUTIONAL AND LEGAL MECHANISMS OF PROPERTY RIGHTS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION

Khudaibergenova Dilnoza Ulugbek qizi

Master's student of the Mass Media Law program at Tashkent State University of Law
dilush826@gmail.com

Abstract: as digital transformation reshapes global legal systems, the notion of property is expanding beyond physical assets to include digital forms such as NFTs, AI-generated content, blockchain-based tokens, and domain names.

This article explores the implications of digitalization for constitutional property rights, focusing on the legal status of such digital assets in Uzbekistan. The study identifies gaps in the current Constitution and advocates for a modern legal approach to ensure protection and recognition of digital property. Drawing from the experiences of the United States, Estonia, South Korea, and China, the article offers comparative insights and policy recommendations for enhancing Uzbekistan's constitutional framework in line with the realities of the digital economy.

Keywords: *digital property, constitutional rights, digitalization, artificial intelligence, NFT, domain names, blockchain, digital assets, legal status, personal data, digital sovereignty, electronic registry, property ownership, legal reform, comparative law.*

Kirish: So‘nggi yillarda globallashuv va texnologik inqilob natijasida insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarida raqamlashtirish jarayonlari jadallashdi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarda raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi, mulk shakllari va uni boshqarish mexanizmlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sun‘iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari, raqamli aktivlar, metama‘lumotlar va boshqa innovatsion yechimlar iqtisodiy muomalaga kirib kelar ekan, klassik mulk tushunchasi o‘z mazmun va shakllarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda¹. Ayniqsa, fuqarolarning raqamli aktivlar, domen nomlari, virtual platformalar va boshqa nomoddiy raqamli resurslarga bo‘lgan egalik huquqlarining huquqiy maqomini belgilash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Shu boisdan, raqamlashtirish sharoitida mulk huquqini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash va uni zamonaviy xavflardan himoya

¹ Gulyamov, S.S. “Raqamli huquq va mulk tushunchasining transformatsiyasi.” *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2022. SJIF: 5.051

qilish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Endilikda an'anaviy mulk tushunchasi raqamli mulk, intellektual aktivlar, virtual valyutalar va sun'iy intellekt mahsulotlarini ham qamrab olmoqda. Bu esa, mavjud huquqiy tizimning, xususan, mulk huquqining konstitutsiyaviy asoslarini qayta ko'rib chiqishni, ularni zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mulq huquqi har qanday demokratik huquqiy davlatda shaxsning iqtisodiy mustaqilligi va huquqiy daxlsizligini ta'minlovchi asosiy qonunchilik. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mulk huquqi alohida e'tirof etilgan bo'lib, unda "har kim mulkka ega bo'lish, uni meros qilib qoldirish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega" ekani belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 41-modda).² Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, bugungi kunda shaxsga tegishli bo'lgan ma'lumotlar (personal data), elektron shakldagi ijodiy mahsulotlar, dasturiy ta'minot va hatto sun'iy intellekt yaratgan kontentlar mulk obyekti sifatida ko'rilmogda. Shu bilan birga, raqamli aktivlar doirasidagi nizolar, ularni huquqiy himoya qilish mexanizmlarining aniq emasligi, mulk huquqini konstitutsiyaviy darajada ta'minlash borasidagi muammolarni yuzaga keltirmogda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, nafaqat huquqiy barqarorlik, balki fuqarolarning raqamli makondagi huquqlarini himoya qilish, investitsion muhitni mustahkamlash hamda davlatning zamonaviy raqamli siyosatini izchil olib borish uchun ham zarurdir. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan, huquq tizimiga ham chuqur ta'sir o'tkazdi. Bugungi raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiyotni, balki ijtimoiy munosabatlarni, davlat boshqaruvini, shaxsiy hayotni ham tubdan o'zgartirmogda. Bu jarayon, tabiiyki,

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Toshkent: Adolat nashriyoti.
SJIF: 5.051

huquqiy me'yorlarga, ayniqsa, mulk huquqiga oid yondashuvlarga yangicha qarashni talab qilmoqda hamda yangicha tushuncha va terminlarni ham olib kirmoqda raqamlashtirish singari.

Raqamlashtirish — bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va huquqiy sohalarda yuzaga kelgan chuqur o'zgarishlar jarayonidir. Raqamlashtirish bugungi kunda an'anaviy axborotlarni raqamli formatga o'tkazishdan ko'ra kengroq jarayon bo'lib, unda texnologik o'zgarishlar, sun'iy intellekt, "bulutli" hisoblash texnologiyalari, blokcheyn, NFT, Big Data kabi zamonaviy texnologiyalar rivojlanib kelmoqda. Bu esa shaxsiy ma'lumotlardan tortib, raqamli aktivlarga bo'lgan ko'plab obyektlarning huquqiy maqomini qayta belgilashga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Raqamlashtirish tufayli avval mavjud bo'lmagan huquqiy obyektlar shakllanmoqda: raqamli aktivlar, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentlar, shaxsga oid ma'lumotlar, virtual mulklar masalan, onlayn o'yinlardagi obyektlar va boshqa ko'plab shakllarni o'zida mujassam etmoqda.³ Bu obyektlar ustidan egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqlari an'anaviy mulk huquqi bilan to'liq tartibga solinmagan. Raqamlashtirish an'anaviy huquqiy obyektlarning shakllanishi va ularni tartibga solish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Zamonaviy huquqshunoslikda ilgari mavjud bo'lmagan raqamli obyektlar — masalan, kriptovalyutalar, tokenlar, NFT'lar, bulutli fayllar, onlayn kontentlar, metaverse ichidagi obyektlar — egalik va foydalanish nuqtayi nazaridan huquqiy himoya talab etmoqda. Ammo ularning huquqiy maqomi hozirgacha aniq belgilanmagan va aniq emas. Masalan, AQShning ba'zi shtatlarida raqamli aktivlar mol-mulk

³ Yo'ldoshev, K. K., Sayfutdinov, A. Sh., & Umarov, T. D. "Raqamli iqtisodiyot asoslari." Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

sifatida tan olingan bo'lsa-da, federal darajada ularning holati aniq qilib belgilanmagan. Yevropa Ittifoqida esa "Digital Services Act" va "Digital Markets Act" singari qonunlar raqamli faoliyatga oid normalarni belgilaydi, biroq ular mulk huquqining barcha jihatlarini to'liq qamrab olmaydi⁴.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish faqat texnologik emas, balki normativ-huquqiy muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, intellektual mulk, raqamli shaxsiyat, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar, blokcheyn texnologiyasi orqali amalga oshirilgan bitimlar bugungi huquqiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunga javoban, ko'plab davlatlar shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasida mustaqil normativ tizimlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining 2018 yildagi "General Data Protection Regulation" (GDPR) qoidalari bu borada ilg'or huquqiy model hisoblanadi. Bugungi kundagi jadal rivojlanish natijasida Mulk huquqiga oid konstitutsiyaviy yondashuvlar ham o'zgarishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasida (2023-yilgi tahrirda) mulk huquqi 41-moddada belgilangan bo'lsa-da, unda raqamli mulk yoki raqamli aktivlarga oid maxsus normalar mavjud emas. Shunga qaramay, yangi konstitutsiyaviy tamoyillarning tarkibida "axborot xavfsizligi", "kiberxavfsizlik", "shaxsiy hayot daxlsizligi", "erkin axborot almashinuvi" singari tushunchalar tobora muhimlik kasb etmoqda.⁵

Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida "raqamli suverenitet" tushunchasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu davlatning o'z hududida joylashgan raqamli infratuzilma, serverlar, fuqarolarga oid ma'lumotlar va raqamli xizmatlar

⁴ European Commission. (2022). *The Digital Services Act package*.

⁵ Ayupov, R.H., & Boltaboeva, G.R. (2025). *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Namangan davlat universiteti. SJIF: 5.051

ustidan to'liq siyosiy va huquqiy nazoratni saqlab qolish huquqini anglatadi. Raqamli suverenitet bir tomondan davlat mustaqilligini mustahkamlasa, boshqa tomondan esa xalqaro axborot maydonidagi erkinlik va ochiqlik tamoyillari bilan to'qnash kelishi mumkin. Shunday qilib bugungi raqamlashtirish sharoitida mulh huquqini yana bir bor tahlil qilish va yangilash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — raqamlashtirish jarayoni sharoitida mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va ularni zamon talablariga mos ravishda yangilash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada raqamli iqtisodiyotning mulk huquqiga ta'siri, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasida mulk huquqining qamrovi va chegaralari tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning raqamli mulk huquqini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlash bo'yicha tajribasi o'rganilib, milliy huquqiy tizimga integratsiya qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonida mulk huquqini yanada samarali himoya qilish va qonuniy kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilishi ko'zda tutilmoqda.

Metodologiyasi ushbu tadqiqotda raqamlashtirish sharoitida mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarini chuqur va tizimli o'rganish uchun turli ilmiy metodlar va yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot uslublari tanlanishida maqolaning ilmiy maqsadlari va mavzuning murakkabligi hisobga olindi. Hamda ushbu maqolada tadqiqot maqsadlariga erishish uchun bir nechta ilmiy yondashuv va metodlar kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqotda konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni chuqur o'rganish va raqamlashtirish

jarayonida mulk huquqining yangi shakllarini aniqlash uchun turli metodologik asoslar birlashtirildi.

Ilmiy yondashuvlar

Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi sifatida konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil usuli tanlandi. Bu yondashuv yordamida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda unga bog'liq qonun va normativ-huquqiy hujjatlardagi mulk huquqiga oid moddalarning mazmuni, strukturasi va amaliy tatbiqi o'rganildi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida mulk huquqining yangi shakllari va ularning huquqiy himoyasi masalalari konstitutsiyaviy nuqtai nazardan batafsil tahlil qilindi. Shuningdek, sistemali metod qo'llanilib, mulk huquqining raqamlashtirish jarayonidagi tizimli o'zgarishlari, uning funksional vazifalari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlashtirildi. Funksional metod orqali esa mulk huquqining raqamli shakllarining huquqiy mexanizmlardagi o'рни va vazifalari kontekstida tahliliy yondashuv amalga oshirildi.

Solishtirma tahlil

Raqamli texnologiyalar rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va mamlakatimiz qonunchiligini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun solishtirma tahlil metodi keng qo'llanildi. Jumladan, raqamli mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirishda AQSh, Germaniya, Estoniya va Janubiy Koreya, Xitoy kabi texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlarning qonunchilik tizimlari chuqur tahlil qilindi.

AQShda raqamli mulk va elektron aktivlar bilan bog‘liq huquqiy tartibga solish sohasida o‘ziga xos qonuniy asoslar yaratilgan bo‘lib, ayniqsa blockchain texnologiyalari va kriptoaktivlarga doir qonunlar muntazam yangilanib kelmoqda. Bu mamlakatda raqamli mulk huquqining himoyasi shaxsiy mulk huquqi tamoyillari bilan mustahkamlanib, shuningdek, federal va shtat darajasida tartibga solinmoqda⁶.

Estoniya esa raqamli davlat konsepsiyasini ilgari surgan yetakchi davlat sifatida, raqamli identifikatsiya, elektron hujjatlar va raqamli aktivlar uchun aniq va tizimli huquqiy mexanizmlarga ega. U yerda raqamli mulk huquqining konstitutsiyaviy himoyasi keng ko‘lamda ta‘minlangan bo‘lib, elektron hukumat tizimlari orqali fuqarolarning huquqlari himoya qilinadi⁷.

Janubiy Koreyada esa raqamli mulk va raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi natijasida raqamli aktivlar bozorini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi takomillashtirilmoqda. Mamlakatda raqamli mulkni qonuniy himoya qilish, shu jumladan intellektual mulk huquqlari va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq mexanizmlar birgalikda rivojlanmoqda⁸.

Xitoyda esa raqamlashtirish jarayonlari bugungi kunda yuqori bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, bu mamlakat raqamli texnologiyalarni joriy etishda dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylangan. Xususan, WeChatPay va Alipay kabi raqamli to‘lov tizimlari keng ommalashgan va kundalik hayotda faol qo‘llanilmoqda. Shuningdek, sun‘iy intellekt sohasida ham Xitoy yetakchi o‘rinlarni egallab, innovatsion rivojlanishda muhim ro‘l o‘ynamoqda. TikTok, Huawei, Alibaba kabi global texnologik kompaniyalar esa nafaqat Xitoyda, balki

⁶ U.S. Congress. *Crypto Regulation Overview – Congressional Research Service*, updated 2023.

⁷ E-Estonia. *e-Governance and Digital Society in Estonia*, 2023.

⁸ Financial Services Commission of Korea. *Guidelines on Virtual Assets and Crypto Regulations*, 2023.

butun dunyoda keng auditoriyaga ega bo'lgan yirik brendlarga aylangan⁹. Taqqoslash jarayonida ushbu davlatlarning tajribasi O'zbekiston qonunchiligiga moslashtirilishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvlarni aniqlash va mamlakatimiz raqamli huquq tizimini takomillashtirish uchun muhim asos bo'ladi. Xususan, raqamli mulkni konstitutsiyaviy himoya qilish mexanizmlari, raqamli aktivlarga doir qonunlarni ishlab chiqish va raqamli iqtisodiyot rivojida fuqarolarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish bo'yicha global tajribalarni o'zlashtirish lozim.

Normativ bazani o'rganish

Normativ-huquqiy bazani chuqur tahlil qilish esa tadqiqotning muhim qismidir. Ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, "Raqamli iqtisodiyot", "Elektron hukumat", "Davlat mulki to'g'risida"gi qonunlar va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar batafsil o'rganiladi. Bu hujjatlar mulk huquqining raqamli shakllanishi va himoyasini konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtai nazardan asoslash imkonini berdi. Normativ bazani o'rganish jarayonida qonunlarning mazmuniy jihatlari, ularning raqamli mulkni himoya qilishga qaratilgan moddalari hamda qonunlarning amaldagi raqamli iqtisodiyot sharoitlariga qanchalik mos kelishi aniqlashga harakat qilindi. Shu bilan birga, mavjud qonunlardagi kamchilik va bo'shliqlar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar

⁹ China Academy of Information and Communications Technology (CAICT). *White Paper on Digital Economy Development in China*, 2022.

XXI asrda yuz berayotgan chuqur texnologik o'zgarishlar, xususan, raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy munosabatlarga, balki huquqiy tizimning barcha jabhalariga, jumladan, mulk huquqining konstitutsiyaviy asoslariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, blokcheyn, raqamli aktivlar, "big data" va boshqa ilg'or texnologiyalar jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan birga, an'anaviy mulk tushunchasini tubdan o'zgartirmoqda. Endilikda mulk nafaqat moddiy shakldagi ob'ektlar bilan, balki raqamli vositalar orqali mavjud bo'lgan, o'z qiymatiga ega bo'lgan virtual aktivlar bilan ham ifodalanmoqda¹⁰.

O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi, xususan, Konstitutsiyada belgilangan mulk huquqiga oid qoidalar bu yangi realliklar oldida yangilanishni talab qilmoqda. Chunki amaldagi konstitutsiyaviy me'yorlar mulk huquqining klassik — ya'ni ko'chmas va ko'char mulk obyektlariga doir shakllariga tayangan bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida shakllanayotgan mutlaqo yangi mulk turlarini qamrab ololmayapti. Bunda gap shunchaki texnik vositalar haqida emas, balki jamiyat va shaxs hayotida real qiymatga ega bo'lgan, foyda keltiruvchi, iqtisodiy muomalaga kiruvchi, raqamli aktivlar, intellektual mahsulotlar, elektron platformalardagi mulkiy huquqlar, domen nomlari, sun'iy intellekt yaratgan kontent kabi obyektlar haqida bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya sharoitida mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ham nazariy, ham amaliy jihatdan qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda. Bunda, avvalo, mulk huquqining zamonaviy talqinini ishlab chiqish, raqamli mulk obyektlarini aniq huquqiy ta'riflash, ularning yuridik maqomini belgilash, davlat ro'yxatidan o'tkazish va sud-huquqiy muhofaza qilish

¹⁰ Tapscott, D. & Tapscott, A. *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World*. Penguin Publishing. 2016.

mexanizmlarini yaratish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda¹¹. Mazkur bo'limda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va amaliyotidagi mavjud holat, huquqiy bo'shliqlar, raqamlashtirish sharoitida yuzaga kelgan asosiy muammolar hamda xorijiy davlatlar, jumladan Estoniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar, o'z navbatida, O'zbekistonning mulk huquqini raqamli asr talablariga moslashtirishda qanday yo'nalishlarda ishlash kerakligini aniqlash imkonini beradi¹².

Amaldagi holat tahlili va muammolar

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi mulk huquqini asosiy inson huquqlaridan biri sifatida e'tirof etadi va uni har qanday shaklda himoya qilishni kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasida mulk huquqiga oid normalar mavjud bo'lsa-da, ular raqamli iqtisodiyot va texnologik taraqqiyotning zamonaviy ehtiyojlariga to'liq mos emas. Konstitutsiyaning 41-moddasida mulk huquqi umumiy tarzda kafolatlangan bo'lib, unda raqamli aktivlar yoki elektron mulk tushunchalari bevosita nazarda tutilmagan.

Shu bilan birga, raqamli mulk ob'ektlari – masalan, blokcheyn asosida yaratilgan raqamli aktivlar, NFTlar, bulutli saqlovlarda joylashgan ma'lumotlar, sun'iy intellekt orqali yaratilgan kontentlar – huquqiy jihatdan qanday turdagi mulk sifatida e'tirof etilishi va ular ustidan egalik huquqi qanday amalga oshirilishi masalasi ochiq qolmoqda. Ayni vaqtda, O'zbekistonda raqamli mulkni huquqiy jihatdan ro'yxatdan o'tkazish, huquqlarni davlat tomonidan tan olish va himoya qilish tizimi to'liq shakllanmagan. Raqamli platformalar orqali egalik qilinayotgan

¹¹ World Bank, The Role of Digital Government in Strengthening Property Rights.2021.

¹² European Commission. *Digital Rights and Principles for the Digital Decade*. 2022; Estonia e-Governance Academy Report, 2021; Korea Copyright Commission, 2022; PRC Civil Code, Chapter on Property Rights, 2021.

mol-mulk masalan, elektron tijoratdagi raqamli do‘konlar, onlayn kontent xizmatlari amaldagi huquqiy tartibga solishda bo‘shliq yuzaga keltirmoqda. Mulk huquqini davlat ro‘yxatiga olish tartiblari ko‘proq an‘anaviy, ya’ni moddiy mulk ob‘ektlariga asoslangan tizimni nazarda tutadi. Bugungi global tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamlashtirish nafaqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanmay, balki huquqiy tizimlarga, jumladan, mulk huquqiga oid konstitutsiyaviy normalarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mulk huquqi insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri sifatida, raqamli davrda yangicha shakl va mazmun kasb etmoqda¹³.

Huquqiy tizim raqamli inqilobga moslashmoqda. Elektron shartnomalar, raqamli identifikatsiya, elektron hujjatlar va blokcheyn asosidagi bitimlar kabi hodisalar zamonaviy huquq tizimida yuridik kuchga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, raqamli aktivlar ustidan mulk huquqining shakllanishi hali to‘liq huquqiy aniqlikka ega emas. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksida raqamli aktivlar alohida huquqiy obyekt sifatida tan olinmagan. Bu esa ushbu munosabatlarni aniq belgilash uchun yangi qonunchilik tashabbuslarini talab qiladi.

Mavjud normativ bo‘shliqlar

Raqamli mulk ob‘ektlarini huquqiy jihatdan tan olish, tasniflash va ro‘yxatga olish borasida amaldagi qonun hujjatlari yetarli darajada aniqlik kiritmaganligi tadqiqotlar natijasida kuzatilmoqda. An‘anaviy qonunchilik ko‘proq moddiy mulk ob‘ektlariga mo‘ljallangan bo‘lib, raqamli mulkka nisbatan maxsus qoidalar va tushunchalar esa shakllanmagan. Natijada, elektron shakldagi

¹³ **Mirzoev, A., 2022.** *“Raqamli mulk huquqining rivojlanishi: global va milliy kontekst”*, Huquqshunoslik ilmiy jurnal, №4, 2022.

aktivlarga egalik huquqi, ularni boshqarish, o'tkazish va muhofaza qilish bilan bog'liq masalalar qonuniy jihatdan aniq belgilanmagan. Bu esa raqamli mulk bilan bog'liq nizolar yuzaga kelganda ularni hal qilish mexanizmlarining noaniq bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, NFTlar, blokcheyn asosidagi tokenlar yoki sun'iy intellekt orqali yaratilgan kontentlar kabi yangi turdagi aktivlarning huquqiy maqomi aniq kiritilmagan hamda to'liq tushunilmaydi va ularga oid qonunlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa qonunchilikda bo'shliqlar hosil bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Davlat infratuzilmasining yetishmasligi

Raqamli mulkni huquqiy jihatdan himoya qilish va egalik huquqini ta'minlash uchun davlat tomonidan raqamli mulk obyektlarini ro'yxatga olish, ularni nazorat qilish hamda huquqiy munosabatlarni boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy infratuzilma – ya'ni elektron reyestrlar, axborot tizimlari va yagona huquqiy platformalar to'liq va samarali joriy etilmagan. Bunday elektron tizimlarning yo'qligi yoki yetarlicha mavjud emasligi yoki rivojlanmaganligi davlat organlarining raqamli mulk bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarni monitoring qilish, nizolarni aniqlash va oldini olish, shuningdek, qonunbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, raqamli aktivlarga egalik qilish jarayoni va huquqiy himoyasi to'liq kafolatlanmayapti, bu esa raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Huquqiy aniqlikning pastligi

Raqamli aktivlar va ularga tegishli kontent ustidan mulk huquqining buzilishi holatlari yuzaga kelganda, sud amaliyotida yagona va aniq

yondashuvning yoʻqligi bugungu kundagi mavjud zaif tomonlarimizdan boʻlib qolmoqda. Sudlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari raqamli mulk masalalarini hal qilishda mavjud qonunlarning noaniqligi va tafovutli talqinlari sababli qarama-qarshi qarorlar qabul qilish hollari koʻpaymoqda. Bu esa huquqiy baholash va qaror qabul qilish jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi, shuningdek, raqamli mulk egalari uchun huquqiy himoya kafolatlarini pasaytiradi. Natijada, mulk huquqi buzilganda yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda kechikishlar va adolatsizliklar sodir boʻlishi mumkin hamda shaxslar oʻziga tegishli boʻlgan mulkni himoya qila olmasliklari mumkin. Bu holatlar fuqarolarga bir qancha muammolar tugʻdirmoqda shu sababdan mavjud muammolarni tizimli hal qilishda konstitutsiyada mavjud moddalarni yaʼna bir karra koʻrib chiqish lozim.

Chet el tajribasi asosida raqamli mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarini solishtirma tahlili va Oʻzbekiston uchun ahamiyati

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan zamonaviy davrda raqamli mulk huquqining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini takomillashtirish uchun xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribasini chuqur oʻrganish va mamlakatimiz qonunchiligini xalqaro standartlar asosida moslashtirish juda muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, AQSh, Estoniya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarning qonunchilik tizimlari solishtirma tahlil asosida batafsil oʻrganildi.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida raqamli mulk va elektron aktivlarni tartibga soluvchi qonunlar doimiy ravishda yangilanib, rivojlanmoqda. Bu mamlakatda raqamli mulk huquqining himoyasi shaxsiy mulk huquqi tamoyillariga asoslangan boʻlib, federal va shtat darajalarida qonunchilik faoliyatlari bilan

ta'minlanadi. Blockchain texnologiyalari va kriptoaktivlar sohasida yasalgan qonunlar nafaqat raqamli mulkni himoya qiladi, balki uning egalarining huquq va majburiyatlarini ham aniq belgilaydi. Bu esa moliyaviy xavfsizlik, mulkchilik barqarorligi va bozor ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, AQSh Kongressi tomonidan 2023 yilda ishlab chiqilgan kriptoaktivlar tartibga solishga oid hujjatlar raqamli mulkni nafaqat mol-mulk sifatida, balki investitsiya vositasi sifatida ham himoya qilishga qaratilgan ¹⁴.

Estoniya esa raqamli davlat konsepsiyasi sohasida dunyoda yetakchi davlat hisoblanadi. Bu mamlakatda raqamli identifikatsiya, elektron imzo va elektron hujjatlar tizimlari juda samarali ishlaydi. Raqamli mulk huquqining konstitutsiyaviy himoyasi keng doirada ta'minlangan bo'lib, davlat raqamli platformalar orqali fuqarolarining huquqlarini himoya qiladi. Raqamli mulkni boshqarish va ro'yxatga olishda Estoniya elektron hukumatining kompleks tizimlari misol bo'la oladi. Bu yondashuv O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun o'rnak bo'lib, raqamli mulk huquqini himoya qilishda yuqori darajadagi qonuniy kafolatlarni yaratish imkonini beradi ¹⁵.

Janubiy Koreyada raqamli mulk bozorining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan birga, bu sohani tartibga soluvchi qonunlar ham doimiy takomillashtirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning muhim qismi hisoblangan raqamli aktivlar, intellektual mulk va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy va tizimli yondashuvlar qo'llanilmoqda. Bu mamlakatda raqamli mulkni qonuniy himoya qilish nafaqat texnologik taraqqiyotga xizmat qilmay, balki fuqarolarning huquq va manfaatlarini kompleks himoya qilishga ham qaratilgan. Janubiy Koreya

¹⁴ U.S. Congress, *Regulation of Crypto Assets and Digital Property Rights*, 2023.

¹⁵ E-Estonia, *Digital Identity and e-Government Solutions*, 2023.

misolida, raqamli mulkni himoya qiluvchi normativ-huquqiy bazaning raqamli iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab olishi zarurligi aniq ko‘rinadi¹⁶.

Xitoyda raqamli iqtisodiyot va raqamlashtirish jarayonlari yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Ushbu davlatda WeChatPay va Alipay kabi raqamli to‘lov tizimlari keng qo‘llanilib, ular kundalik iqtisodiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, Xitoy sun‘iy intellekt va boshqa innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda yetakchi o‘rinlarni egallab, global miqyosda raqamli iqtisodiyotda raqobatbardosh bo‘lishni maqsad qilgan. TikTok, Huawei va Alibaba kabi yirik kompaniyalar nafaqat Xitoy ichida, balki jahon bozorida ham o‘zining kuchli pozitsiyasini mustahkamladi. Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli mulkni tartibga solish nafaqat qonunchilikni joriy qilish, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Ushbu davlatda raqamli mulkni huquqiy himoya qilish mexanizmlari keng va ko‘p qatlamli bo‘lib, ular raqamli aktivlar, intellektual mulk va shaxsiy ma’lumotlar sohasini birgalikda qamrab oladi¹⁷.

Ushbu mamlakatlarning tajribasi O‘zbekiston uchun raqamli mulk huquqini himoya qilishda konstitutsiyaviy hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda muhim namuna bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish konstitutsiyaviy va fuqaroviy huquqlar, ayniqsa, mulk huquqining mohiyati va mazmunini yangicha talqin qilishga undamoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, shaxs erkinliklari va davlat suvereniteti o‘rtasidagi muvozanatni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Mulk huquqi endilikda nafaqat an’anaviy jismoniy obyektlarga, balki raqamli va virtual

¹⁶ Financial Services Commission of Korea, *Regulatory Framework for Digital Assets and Intellectual Property*, 2023.

¹⁷ China Academy of Information and Communications Technology (CAICT), *Development Report on Digital Economy and Regulatory Policies*, 2022.

obyektlarga nisbatan ham tatbiq etilishi kerak. Xususan, raqamli mulkni davlat ro'yxatiga olish va qonuniy himoya qilish, raqamli aktivlar bozorining barqarorligini ta'minlash, shuningdek, fuqarolarning raqamli iqtisodiyotdagi huquq va manfaatlarini kafolatlash borasida xalqaro tajriba asosida kompleks choralar ishlab chiqish zarur. Bu yo'nalishda, O'zbekiston qonunchiligida raqamli mulk huquqini konstitutsiyaviy himoya qilish mexanizmlarini joriy etish, raqamli iqtisodiyotning o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy va integratsiyalashgan normativ-huquqiy bazani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda raqamlashtirish davri — bu nafaqat texnologik yangilanish, balki huquqiy tizimlarning ham tubdan o'zgarishini talab qiladigan jarayonlardan biriga aylanmoqda. Mulk huquqi sohasida raqamli transformatsiyalar mulkning mazmuni, shakli va uni himoya qilish usullarini yangi bosqichga olib chiqmoqda shu sababdan bu soxada ko'plab muammolar kundan-kunga ortib bormoqda. An'anaviy konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar bu o'zgarishlarga yetarlicha javob bera olmayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, mulk huquqining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini zamonaviy raqamli davrga moslashtirish, uni yangi format va sharoitlarga moslab yangilash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli mulk tushunchasi kengayib, an'anaviy moddiy mulkdan tashqari intellektual va raqamli aktivlar ham mulk huquqi sohasi tasarufiga kirmoqda shunday ekan ularning qonun tomonidan himoya qilinishi va huquqlarini belgilanishi zarur masalalardan biridir. Raqamlashtirish sharoitida mulk ob'yektlari soni kengayishi o'z navbatida, yangi huquqiy normativ bazani shakllantirishni, amaldagi huquq normalarini takomillashtirish va himoya qilish mexanizmlarini

yangilashni taqozo etmoqda. Shuningdek, raqamli mulk huquqining barqarorligini ta'minlash uchun davlat boshqaruvida yangi yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini bugungi kun talab darajasida yanada takomillashtirish zarur. Yuqorida keltirib o'tilganlar mulkchilik huquqlarining himoyasini kuchaytirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, mamlakatimiz qonunchiligini raqamli davr talablariga moslashtirish orqali xalqaro standartlarga muvofiq, samarali va adolatli huquqiy tizim yaratish muhim ahamiyatga ega.

Shu boisdan quyidagi tavsiyalarni ham keltirib o'tamiz.

- **Konstitutsiyaviy va qonuniy bazani modernizatsiya qilish:** Raqamli mulk tushunchasini aniq belgilashimiz, yangi mulk shakllarini qonunlarda aks ettirishimiz hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni raqamlashtirish sharoitlariga moslashtirishimiz zarur. Bu orqali mulkchilik huquqining keng ko'lamda himoyasi va uning raqamli iqtisodiyotda ishonchli faoliyatini ta'minlagan bo'lamiz.

- **innovatsion texnologiyalarni huquqiy tizimga integratsiya qilish:** Blokcheyn, sun'iy intellekt, elektron notarial xizmatlar kabi zamonaviy texnologiyalar kundan-kunga rivojlanib bormoqda bu esa mulk huquqini ro'yxatga olish, kuzatish, tranzaktsiyalarni amalga oshirish va nizolarni hal qilishda samaradorlikni oshiradi. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni qonuniy jihatdan qo'llash hamda keng joriy etish uchun maxsus huquqiy mexanizmlar ishlab chiqishimiz lozim.

- **xud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning raqamli imkoniyatlarini kengaytirish:** Huquqni muhofaza qilish tizimida raqamli

vositalarni keng joriy qilish orqali mulk huquqini buzilishining oldini olish, tezkor va adolatli sud qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini joriy qilishimiz zarur. Bu maqsadda sudlar va boshqa organlar uchun mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash lozim.

- xalqaro tajriba va standartlarni o'zlashtirish: Raqamli mulk huquqini tartibga solishda ilg'or xalqaro tajribalarni o'zlashtirish hamda uni mamlakatimiz sharoitlariga moslashtirishimiz va joriy qilishimiz kerak. Shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash raqamli mulk huquqining samarali rivojlanishga poydevor yasash zarurdir. Bu esa kelajakda O'zbekistonda ham chet el tajribalarini o'zlashtirib o'z qonunchilik modellarini yaratishga negiz bo'lishi mumkin hamda mukammal qonunchilik modelini yaratishi mumkin.

- axborot-kommunikatsiya platformalarini rivojlantirish: **Bilamizki bugungi kunda axborot-texnologiya platformalari** yangicha shaklda namoyon bo'lmoqda bu esa fuqarolarning zamon bilan hamnafas bo'lishiga undamoqda. Shunday ekan xar bir fuqaro o'z bilim va savodxonliklarini muntazam ravishda oshirib, yangilab borishi lozim. Bundan tashqari agarda biz axborot-kommunikatsiya platformalarini mutlaqo zamon talabiga mos qonunchilik asosida ishlaydigan platforma yaratsak hamda uni qonuniy ishlashini taminlasak bugungu kunda fuqarolar va biznes uchun qulay, xavfsiz va ishonchli raqamli platformalar yaratgan bo'lamiz. Bu esa mulk huquqi bo'yicha xizmatlarni yanada takomillashtirishi hamda barcha xizmatlarni elektron shaklda ko'rsatish orqali huquqiy savodxonlikni oshirish va mulkchilik munosabatlarini yanada shaffof qilish mumkin.

- huquqiy savodxonlik va targ'ibot ishlarini kuchaytirish: **Raqamlashtirish davrida yashar ekanmiz aholining bu borada savodxonligini**

oshirib borish dolzarb hisoblanadi. Raqamli mulk huquqi va uning himoyasi bo'yicha aholiga, biznes sub'ektlariga va huquqni qo'llovchi organlarga doimiy ravishda ta'lim va targ'ibot ishlarini olib borish, yangi qonunlar va mexanizmlarning mazmunini tushuntirish zarur. Bu esa kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan turli tushunmovchiliklar hamda muammolarning yuzaga kelishini oldini olgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** (2023). Toshkent: Adolat nashriyoti.
2. **U.S. Congress.** *Crypto Regulation Overview – Congressional Research Service*, yangilangan 2023.
3. **European Commission.** *Digital Economy and Society Index Report*. Brussels: EU Publications, 2020.
4. **World Bank.** *The Role of Digital Government in Strengthening Property Rights*, 2021.
5. **Financial Services Commission of Korea.** *Guidelines on Virtual Assets and Crypto Regulations*, 2023.
6. **China Academy of Information and Communications Technology (CAICT).** *White Paper on Digital Economy Development in China*, 2022.
7. **E-Estonia.** *e-Governance and Digital Society in Estonia*, 2023.
8. **Ayupov, R.H. & Boltaboeva, G.R.** (2025). *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Namangan: Namangan davlat universiteti.
9. **Elliot, C. & Quinn, F.** (2016). *Contract Law*. 12th ed. Harlow: Pearson Education Limited.

10. **Mirzoev, A.** (2022). "Raqamli mulk huquqining rivojlanishi: global va milliy kontekst." *Huquqshunoslik ilmiy jurnal*, №4, 45–53.
11. **Mutaharova, G.** (2022). *Mulk huquqi va uning himoyasi: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Yurist nashriyoti.
12. **Samuelson, P.** (2000). "Privacy as Intellectual Property?" *Stanford Law Review*, 52(5), 1125–1173.
13. **Tapscott, D. & Tapscott, A.** (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World*. Penguin Publishing.
14. **Zubair, S.** (2021). *Digital Property and Constitutional Law: Global Perspectives*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. **Gulyamov, S.S.** "Raqamli huquq va mulk tushunchasining transformatsiyasi." *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2022.